

HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI

O'TKIR ULUGBEK OMADI MChJ, keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi. O'zining nizom asosida ish yurituvchi U.Nematov bir tomondan Gijduvon tuman Obodonlashtirish boshkarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi, o'zining nizom asosida ish yurituvchi rahbari M.Umarov ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" **Yangi yil bayram tadbirlarini o'tkazish xizmati**, "Buyurtmachi" ushbu "Xizmatlar"ni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. "Xizmatlar"ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek ularni ko'rsatish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltiriladi.

2. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

2.1. "Buyurtmachi"ning huquqlari:

2.1.1. "Bajaruvchi"dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

2.1.2. "Bajaruvchi"dan "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning hisobiga transportda tashilganda transport xarajatlarini qoplashni talab qilish;

2.1.3. "Bajaruvchi"dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan "Xizmatlar" ko'rsatilishini talab qilish;

2.1.4. zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:

- zarur sifatga ega bo'lmagan "Xizmatlar" shunga o'xshash "Xizmatlar" bilan almashtirilishini;

- "Xizmatlar"ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar "Buyurtmachi" yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi xarajatlarini qoplashni;

- bahosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

2.1.5. Shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Bajaruvchi"dan talab qilish.

2.2. "Buyurtmachi"ning majburiyatlari:

2.2.1. «Xizmatlar»ni 2022 yilda byudjetdan (tashqari) ajratilgan mablag'lar doirasida "Bajaruvchi" bilan shartnoma tuzish;

2.2.2. O'z buyurtmanomasi bo'yicha ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

2.2.3. «Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab, g'aznachilik bo'limi ro'yxatidan o'tkazgandan so'ng 10 kun mobaynida haq to'lash.

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

2.3.1. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va hajmda uzil-kesil hisob qilinishini "Buyurtmachi"dan talab qilish;

2.3.2. Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini "Buyurtmachi"dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

2.4.1. «Buyurtmachi» bilan tuzgan shartnomasi G'aznachilik bo'linmasidan ruyxatdan o'tkazilgandan so'ng "Xizmatlar"ni ko'rsatish;

2.4.2. "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar"ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi" tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish;

2.4.3. Agar "Xizmatlar"ni ko'rsatish jarayonida "Bajaruvchi" shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, "Buyurtmachi"ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni 10 kun muddatda tekin tuzatib berish.

3. SHARTNOMANING BAHOSI VA HISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Mazkur shartnomaning bahosi 109 800 000 (Bir yuz to'qqiz million sakkiz yuz ming) so'mni tashkil etadi. Ko'rsatiladigan "Xizmatlar"ning bahosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. "Buyurtmachi" ko'rsatiladigan "Xizmatlar" turkumi summasining 30 foizi miqdorida 2022 yilning dekabr o'yida oldindan haq to'laydi va "Xizmatlar" turkumi summasining 70 foizi miqdorida yakuniy to'lov hisob-faktura (yoki ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat) taqdim qilingandan so'ng ushbu shartnoma amal qilish muddati tugaguncha amalga oshiriladi.

3.3. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun pul ko'chirish yo'li bilan naqd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

4. SHARTNOMANING BAJARILISHI

4.1. Shartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari shartlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak. Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlansa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. Shartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. "Xizmatlar" qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi. "Buyurtma"chining Hisob-kitob hujjatida g'aznachilik bo'linmalarining shtampida ko'rsatilgan sana "Xizmatlar"ga haq to'lash bo'yicha "Buyurtmachi" majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. "Buyurtmachi" muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan "Xizmatlar"ni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.5. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda "Xizmatlar" ko'rsatilishi ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" o'rnini to'ldirish sifatida qaralmaydi va ko'rsatilmagan "Xizmatlar"ning o'rnini to'ldirilishi kerak, bunday "Xizmatlar" "Buyurtmachi"ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

4.6. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" bevosita "Buyurtmachi"ning mas'ul xodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada ko'rsatilgan "Xizmatlar" miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.7. Shartnomada nazarda tutilgan "Xizmatlar" ko'rsatilishi mazkur shartnomaga muvofiq yoki "Buyurtmachi"ning buyurtmanomasi ko'rsatilgan muddatlar va hajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maqsadlarda "Bajaruvchi" Buyurtmachilarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi. Buyurtmanoma "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish mo'ljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orqali, pochta orqali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orqali qabul qilishda "Bajaruvchi"ning xodimi "Buyurtmachi"da qoladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.8. "Buyurtmachi" ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud "Xizmatlar"ning tegishli qismlarini ko'rsatish sanasini o'zgartirishga haqlidir, bu haqda "Bajaruvchi"ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor qiladi.

4.9. Ishlarining boshlanishi «19» - dekabr 2022 yil.

4.10. Ishlarining tugashi vaqti «31» - dekabr 2022 yil

5. TOMONLARNING JAVOGBARLIGI

5.1. Ko'rsatilayotgan "Xizmatlar" sifati, miqdori "Bajaruvchi" tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda "Bajaruvchi" ko'rsatilayotgan "Xizmatlar"ning sifati, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob qiladi, hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari buyurtmachiga noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar ko'rsatilgan "Xizmatlar"ning sifati, assortimenti, navlari standart, texnik shartlar talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon ko'rsatilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan "Xizmatlar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. "Xizmatlar" ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan "Xizmatlar"ning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga "Xizmatlar" ko'rsatilmaligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

5.4. Xizmatlar ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan "Xizmatlar" qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va "Xizmatlar" ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmagligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod etmaydi.

5.5. Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.6. "Buyurtmachi" tomonidan tegishli shartnomada bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun "Buyurtmachi"ni javobgarlikka tortishda shuningdek uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) "Buyurtmachi" tomonidan shartnomada bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan "Bajaruvchi"ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. "Bajaruvchi"ning aybi bilan shartnomaning "Buyurtmachi" tomonidan bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda "Bajaruvchi" tomonidan qoplanadi.

5.7. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH BO'YICHA QO'SHIMCHA SHARTLAR

6.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2021-yildagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-sonli Farmonining 3-qism v) bandiga muvofiq:

-Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan quyidagilarni kafolatlaydi:

-qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini;

-shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini;

-moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz olinmaganligini.

-Taraflar ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar

-Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar

-yuqoridagi majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi. Bir taraf korrupsiyaga qarshi amaldagi qonun hujjatlari, korrupsiya bo'yicha qo'llaniladigan siyosat va qoidalar talablari buzilgan taqdirda, boshqa tarafni yozma ravishda xabardor qilgan holda bu shartnomani bekor qilishga haqli. Ikkinchi tarafga tegishli bildirishnoma yuborgan paytdan shartnoma bekor qilingan hisoblanadi. Bunday holda, birinchi tarafga yetkazilgan barcha zararni qoplaydi.

7. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

7.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda ularni sudgacha hal etish choralari ko'radilar.

7.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nizolarni hal etish uchun bevosita sudga murojaat qilishga haqlidir.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

8.1. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet kodeksi"ning 122-moddasiga asosan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjetdan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar ular g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi va "31" dekabr 2022 yilgacha amalda bo'ladi.

8.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda to'xtatiladi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

9.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

9.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri uchun bir nusxadan ikki nusxada tuziladi. Shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

9.4. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar qo'shimchalar ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

10. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«Bajaruvchi»

«Buyurtmachi»

O'TKIR ULUGBEK OMADI MChJ

**Gijduvon tuman Xokimligi xuzuridagi
Obodonlashtirish boshkarmasi**

(Tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat
ko'rsatuvchining nomi)

(byudjetdan mablag' oluvchi tashkilotning
nomi)

Manzil: Gijduvon tuman

Manzil: Gijduvon tumani Paxtakor kucha
№40uy

Tel/faks

Tel/faks 572-68-95

h/r 20208000705147234001

sh/hv: 100022860062157065200110003

Bank nomi: Hamkorbank ATB Buxoro filiali

**Byujetdan mablag' oluvchi
STIRi:203621572**

MFO 00966

OKONX 86100

OKED 47780

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Gijduvon tuman
buyicha G'aznachilik bulinmasi

STIR 306126139

Yagona g'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent shahar Markaziy
bank BBXKKM

MFO: 00014

G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201122919

Rahbar

U.Nematov


(imzo)

(F.I.Sh)

Rahbar

M.Umarov

(imzo) (F.I.Sh)



Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.
Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

Imzolovchi F.I.SH.	MUXSIN UMAROV ANVAROVICH
Imzolangan sana	19.12.2022 14:38
Hujjat kodi	MZ8674888032
Hulosa kodi	MC0800277513

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

MC0800277513

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Yangi yil bayram tadbirlarini o'tkazish xizmati**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: G'ijduvon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 19.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**G'ijduvon tumani
yuridik markaz
bosh yuristkonsulti:**



**I.I.Ismatov
19.12.2022**

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 205162 на приобретение Янги йил байрам тадбирларини утказиш хизмати

Способ проведения электронный

Дата 12.12.2022

Время рассмотрения 03.12.2022 14:07

Конкурсная комиссия Туман хокимлиги хузуридаги ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	UMAROV MUXSIN ANVAROVICH	бошлик	Гиждувон туман хокимлиги хузуридаги Ободонлаштириш бошкармаси
Секретарь комиссии	ZAYNIYEV ZAVQIDDIN SAVRIDDIN O'G'LI	Texnika xavfsizligi muhandisi	Obodonlashtirish boshqarmasi
Член комиссии	RASHIDOV AKBARALI TO'LQINJON O'G'LI	Омбор мудир	Гиждувон туман хокимлиги хузуридаги Ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	ASHUROV ERKINJON BAHODIROVICH	Bosh muhandis	Obodonlashtirish boshqarmasi
Член комиссии	ESHNAZAROV MEXRIDDIN XAYRIDDINOVICH	Бош ҳисобчи	Ободонлаштириш бошкармаси
Член комиссии	Саломов Садриддин Насимович	Иқтисодчи	Ободонлаштириш бошкармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 12.12.2022 года № лота 205162.

Метод оценки предложений – Бальный метод

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по изготовлению и монтаж наполнение (оформление) на конструкцию
Подробное описание	Янги йил байрам тадбирларини утказиш хизмати
Количество товара	1.00
Единица измерения	усл. ед
Цена товара (услуги) за единицу	110 000 000.00
Стартовая сумма	110 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ишларни бажариш муддати

Тип: Числовое значение

Описание: Ишларни бажариши тугрисида маъмулот ва кафолат хат

Обязательность: Не критично

Требование заказчика: В диапазоне: лучше – меньше: от 5 до 20 день

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
O'TKIR ULUG'BEK OMADI MCHJ	20	5	20	Системная		
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	20	10	13.75	Системная		

Критерий №2 Коррупцияга карши талаблар (684-Конун 13-моддатига риоя этилиши шарт)

Тип: Бинарное значение

Описание: Коррупцияга карши талаблар (684-Конун 13-моддатига риоя этилиши шарт)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
O'TKIR ULUG'BEK OMADI MCHJ	20	1	20	Экспертная		
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	20	1	20	Экспертная		

Критерий №3 Моддий таъминот

Тип: Бинарное значение

Описание: Талабгор моддий таъминланганлиги ва йиллик маблаг айланмаси х/р колдиги

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
O'TKIR ULUG'BEK OMADI MCHJ	20	1	5	Экспертная		
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	20	1	1	Экспертная		

Критерий №4 Иш тажрибаси (Иштирокчи корхонанинг давлат руйхатидан даврдан бошлаб унинг иш тажрибаси шу сохада амалга оширган булиши, буюртмачилар томонидан берилган тавсифномалар, далолатнома, фото суратларда илова килинган булиши керак)

Тип: Бинарное значение

Описание: Иш тажрибаси (Иштирокчи корхонанинг давлат руйхатидан даврдан бошлаб унинг иш тажрибаси шу сохада амалга оширган булиши, буюртмачилар томонидан берилган тавсифномалар, далолатнома, фото суратларда илова килинган булиши керак)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
O'TKIR ULUG'BEK OMADI MCHJ	20	1	15	Экспертная		
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	20	1	5	Экспертная		

Критерий №5 Иштирокчи корхона хакида маълумот (гувохнома, Низоми (устав), ва умумий маълумотлар

Тип: Бинарное значение

Описание: Иштирокчи корхона хакида маълумот (гувохнома, Низоми (устав), ва умумий маълумотлар

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
O'TKIR ULUG'BEK OMADI MCHJ	20	1	20	Экспертная		
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	20	1	20	Экспертная		

Критерий №6 Омбор маълумоти

Тип: Бинарное значение

Описание: Омбор маълумотномаси бухгалтерия хужжатлари асосида ишончли булиши керак

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
O'TKIR ULUG'BEK OMADI MCHJ	20	1	5	Экспертная		
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	20	1	1	Экспертная		

Критерий №7 Танловда иштирок этадиган корхонанинг солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги ёқлиги тўғрисида маълумот

Тип: Бинарное значение

Описание: Танловда иштирок этадиган корхонанинг солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги ёқлиги тўғрисида маълумот

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
O'TKIR ULUG'BEK OMADI MCHJ	20	1	20	Экспертная		
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	20	1	20	Экспертная		

Финансовое значение

Наименование товара: Услуги по изготовлению и монтаж наполнение (оформление) на конструкцию

Ценовые предложения				Порядок оценки ценовых предложений	
Наименование участника	Стартовая сумма (UZS)	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов	Итоговое значение (UZS)
O'TKIR ULUG'BEK OMADI MCHJ	110 000 000.00	109 800 000.00 UZS	109 800 000.00	00.00	109 800 000.00
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	110 000 000.00	109 900 000.00 UZS	109 900 000.00	00.00	109 900 000.00

Оценка участников финансовой части составила:

Стартовая сумма составляет 110 000 000.00 UZS

Наименование участника	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Коэффициент, используемый для расчета предложений нерезидентов	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
O'TKIR ULUG'BEK OMADI MCHJ	109 800 000.00 UZS	109 800 000.00	00.00	00.00	109 800 000.00	11.12.2022 16:52:09	10
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	109 900 000.00 UZS	109 900 000.00	00.00	00.00	109 900 000.00	11.12.2022 17:37:12	9.9909

Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей

Итоговая оценка участников включая финансовый части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
О'ТКИР УЛУГ'БЕК ОМАДИ МСНҲ	67.5	10	77.5
ООО ВОHEMIAN CRISTAL	51.9111	9.9909	61.902

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 205162 от 12.12.2022 года на приобретение Янги йил байрам тадбирларини утказиш хизмати определила победителем:

О'ТКИР УЛУГ'БЕК ОМАДИ МСНҲ
306126139

и резервный исполнитель: ООО ВОHEMIAN CRISTAL (305691919)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	UMAROV MUXSIN ANVAROVICH	Согласен	
Член комиссии	RASHIDOV AKBARALI TO'LQINJON O'G'LI	Согласен	
Член комиссии	ASHUROV ERKINJON BAHODIROVICH	Согласен	
Член комиссии	ESHNAZAROV MEXRIDDIRIN XAYRIDDIRINOVICH	Согласен	
Член комиссии	Саломов Садриддин Насимович	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП